

PUL-KREDIT SIYOSATI SHARHI


QISQA TAVSIF

2025-YIL IV CHORAK

Iqtisodiy faollik va yalpi talab

2025-yilning IV choragida O'zbekiston iqtisodiyotida yuqori iqtisodiy faollik saqlanib qolib, yalpi talab omillari iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatladi. Iste'mol va investitsiya talabining barqaror o'sishi, fiskal rag'batlantirish choralari hamda jahon xomashyo bozorlarida nisbatan qulay kon'yunktura iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini jadallashtirdi. Natijada, 2025-yil yakunlariga ko'ra yalpi ichki mahsulotning real o'sish sur'ati 7,7 foizni tashkil etdi va prognoz ko'rsatkichlaridan yuqori shakllandi.

YAIM ning real o'sish sur'atlari prognozi, foizda



Umumiy inflyatsiya prognozi, foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.


* - kutilyotgan;

rasmlarda och rang bilan berilgan qismlar prognoz diapazonini ifodalaydi.

Inflyatsiya va inflyatsion kutilmalar


IV chorakda inflyatsiya pasayish dinamikasini davom ettirdi. 2025-yil dekabr oyida yillik inflyatsiya darajasi 7,3 foizgacha pasayib, prognoz doirasida shakllandi. Bunda qat'iy pul-kredit sharoitlari, almashuv kursining mustahkamlanishi hamda import narxlaridagi o'zgarishlar muhim omil bo'ldi. Bazaviy inflyatsiya ham pasayish tendensiyasini namoyon etib, dekabr oyida yillik hisobda 5,7 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, talab omillari ta'sirida xizmatlar inflyatsiyasi nisbatan yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Umumiy va bazaviy inflyatsiyaning yillik o'zgarishi dinamikasi, foizda




2025-yil davomida aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari umumiy inflyatsiyaning pasayishi fonida pasayuvchi dinamikani namoyon etdi. Xususan, **aholining** kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalari yil boshidagi **14,4 foizdan** yil yakuniga **11,5 foizgacha** pasaydi. Shu bilan birga, **tadbirkorlik subyektlarining** inflyatsion kutilmalari **12,9 foizdan 11,1 foizgacha** pasayish qayd etildi.

Kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalar va umumiy inflyatsiya dinamikalari, foizda



Inflyatsion kutilmalar va umumiy inflyatsiya orasidagi tafovut, foizda




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.


Tashqi iqtisodiy sharoitlar

2025-yil IV choragida tashqi iqtisodiy muhit nisbatan qulay shakllandi. Jahon bozorlarida xomashyo tovarlari narxlarining yuqori darajada saqlanishi eksport tushumlari va byudjet daromadlarini qo'llab-quvvatladi. 2025-yilda ichki valyuta bozorida xorijiy valyuta taklifining eksport tushumlari, tashqi kreditlar va pul o'tkazmalari hisobiga ortishi milliy valyuta kursining mustahkamlanishiga xizmat qildi. Natijada so'm almashuv kursi yil davomida 6,9 foizga mustahkamlandi. Ushbu jarayon import inflyatsiyasi bosimini kamaytirib, dollarlashuv darajasining pasayishiga hamda tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarining qisqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Asosiy savdo hamkorlar asosiy stavkalari, foizda



Asosiy savdo hamkorlar valyuta kursi dinamikasi, 2024-yil=100%




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Pul-kredit sharoitlari va siyosat istiqboli

Inflyatsiyani barqaror pasayish trayektoriyasida shakllantirish maqsadida pul-kredit sharoitlari qat'iy darajada saqlab qolindi. Xususan, inflyatsion xatarlarni jilovlash va yalpi talab bosimini cheklash maqsadida asosiy stavka 14 foiz darajada saqlab qolindi. Bank tizimida likvidlik profitsiti mavjud bo'lishiga qaramasdan, Markaziy bank tomonidan likvidlikni jalb qilish operatsiyalari faol qo'llanilib, pul bozori stavkalari chorak davomida 13,9 foiz atrofida shakllandi. Bu esa ijobiy real foiz stavkalari orqali milliy valyutadagi jamg'armalarni rag'batlantirishga xizmat qildi.

UZONIA ko'rsatkichi dinamikasi, foizda



O'рта muddatli makroiqtisodiy prognozlar

Yangilangan prognozlarga ko'ra, 2026-yilda iqtisodiy o'sish sur'atlari 6,5–7 foiz atrofida shakllanishi kutilmoqda. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasining 6,5 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Kelgusida Markaziy bank inflyatsiya dinamikasi, inflyatsion kutilmalar, yalpi talab omillari hamda tashqi iqtisodiy xatarlarni doimiy monitoring qilib boradi. Pul-kredit siyosati inflyatsiyani o'рта muddatda 5 foizlik target darajasigacha pasaytirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash qaratilgan holda davom ettiriladi.